



**RESPUBLIKAMIZDA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING  
TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)**

**Ravshanov Sunnat Ravshan o'g'li**

JDPU

Ijtimoiy gumanitar fanlar o'qitish  
metodikasi (tarix) 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7614187>

Milliy madaniy markazlar bu- O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotidir. Milliy madaniy markazlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to'g'risidagi amaldagi qonunlariga hamda o'z nizomiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi. Milliy-madaniy markazlar muayyan millatga xos bo'lgan milliy madaniyat, til, urf-odat, an'ana va taomillarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfa'atdor bo'lgan, O'zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat va notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni (1999-y. 14-aprel)ga asoslangan holda tuziladi. Nizomi tegishli adliya tashkilotlari (Adliya vazirligi yoki viloyat va shahar adliya idoralari) tomonidan ro'yxatga olinadi. O'z faoliyatini bevosita yoki jamoalardagi bo'limlari orqali O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi<sup>1</sup>.

Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tuzilgan bo'lib, bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. O'zbekiston mustaqilligi munosabati bilan ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar va zarur shart sharoitlar yaratildi. Natijada milliy-madaniy markazlar soni yil sayin ortib bormoqda. Agar Respublikamizda 1992-yil 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo'lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga kelib esa 135 taga yetdi. Ular respublika madaniy markazlari, viloyat, shahar, tuman madaniy markazlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini rivojlantirish, Respublika baynalminal madaniyat markazi,

<sup>1</sup> Ozbekiston milliy ensiklopediyasi (Toshkent 2000)





manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish markazning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi. Nizomda belgilangan maqsad va vazi-falarga erishishda markazlar quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: musika va teatr studiyalarini, ona tili, tarix, yozuv, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr va rassomchilik san'ati, milliy urf-odatlar va hunarmandchilik, milliy sport va o'yinlar turlarini o'rganish bo'yicha o'quv guruhlari va yakshanba maktablarini amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzadi, milliy madaniyat, milliy til, milliy san'at turlari va milliy urf-odatlarni o'rganish va targ'ib qilish maqsadlarida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlarni, xor va badiiy jamoalarni tashkil etadi. Milliy-madaniy markazlari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalminal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi<sup>2</sup>. Respublikamiz hududida har bir viloyatning milliy madaniy markazlari faoliyat ko'rsatmoqda ulardan Jizzax viloyatida tashkil etilgan Milliy madaniy markazlar misol bo'la oladi

Jizzax viloyatida 6 ta milliy madaniy markazlar (*qirg'iz, tojik, qozoq, rus, tatar va koreys*) viloyat adliya boshqarmasida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Bugungi kunda barcha 6 ta milliy madaniy markazlar Jizzax shahri, Islom Karimov shoh ko'chasida joylashgan "Do'stlik uyi" markazi binosida barcha qulay shart-sharoitlarga ega xonalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyatda ksenofobiya, milliy ustunlik g'oyalari hamda jamiyatimiz uchun yot bo'lgan boshqa g'oyalarning tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlar belgilangan.

Jizzax viloyatida mamlakatimiz aholisining 4,1%i istiqomat qiladi. Jumladan, o'zbeklar – 1208,7; qirg'izlar – 41,6; qozoqlar – 28,4; tojiklar – 31,6; ruslar – 14,9; tatarlar – 6,4; koreyslar – 2,7; turkmalar – 0,4; qoraqalpoqlar – 0,2; boshqa millat va elatlar vakillari – 17,3 ming kishi tashkil etadi.

Milliy madaniy markazlar qardosh xalqlar vakillaridan iborat bo'lgan diasporalar o'rtasida o'zaro hurmat muhiti shakllangan bo'lib, turli salbiy kayfiyatning kelib chiqishiga hech qanday asoslar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrdagi PF-5876-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida viloyat hokimining 2020-yil 6-apreldagi 01-450-sonli yig'ilish bayoni bilan

<sup>2</sup> Axmedov B.A. O'zbek ulusi. T., 1991





viloyat hokimligi huzurida millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashi tarkibi hamda viloyatda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan hududlarda amalga oshirilgan ishlar holati tahlilini olib borish bo'yicha asosiy ijrochi bo'lgan tashkilot, boshqarma va idoralar vakillaridan iborat monitoring tarkibi tasdiqlab olindi va huddi shunday tuman (shahar) hokimliklarida ham "jamoatchilik kengashlari" tashkil etilib, ular oldiga millatlararo munosabatlarni chuqur va muntazam ravishda o'rganib borish, qardosh xalqlar o'rtasidagi har bir holatlar va ziddiyatlarga alohida e'tibor qaratish, o'z vaqtida tegishli idoralarga habar berish topshirig'i berildi<sup>3</sup>.

Davlat organlari va milliy madaniy markazlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash hamda mavjud taklif va muammolarni bevosita hamkorlikda hal etish yuzasidan O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat bo'limining tajribali mutaxassislari ishtirokida davlat grandlarida ishtirok etish tartiblari va davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy sherikchilikning ahamiyati haqida 2 mart davra suhbatlari va seminar treninglar tashkil etildi<sup>4</sup>.

Viloyatning ko'p millatli aholisi, Tojikiston va Qozog'iston Respublikalari bilan chegaradoshligini inobatga olib, hududda millatlararo bag'rikenglik muhitini saqlash, yoshlarni o'zaro hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda yaxshi qo'shnichilik aloqalarini rivojlantirish masalalariga asosiy e'tiborni qaratish maqsadida hamda viloyatda millatlararo muomala madaniyati his-tuyg'usini mustahkamlash bo'yicha 4 bo'lim, 23 banddan iborat "Yo'l haritasi" ishlab chiqildi va 40 ga yaqin davlat va jamoat tashkilotlari jalb etildi. Shuningdek, mazkur "Yo'l xaritasi" doirasida millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan aksiyalar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa ilmiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatiga bag'ishlangan teleradio-eshittirishlar, publitsistik maqolalar tayyorlash, Xalqaro bag'rikenglik kunini keng nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar va turli tanlovlar o'tkazish orqali ishtirokchilarni rag'batlantirish va mukofotlash, shuningdek, Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchi olimlari ishtirokida millatchilik g'oyalarini targ'ib qilishga qarshi kurashish bo'yicha publitsistik, ma'rifiy va ilmiy ommabop materiallar tayyorlab, ularni tegishli idoralar va Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik

<sup>3</sup> Axmedov B.A. O'zbek ulusi. T., 1991

<sup>4</sup> Xusanov O. Fuqarolik o'z-o'zini boshqarish, huquqiy demokratik islohotlar. "O'zbekiston" 1997y.





aloqalar qo'mitasi bilan kelishgan holda internet tarmog'i va veb-saytlarda joylashtirish hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan Yunusova X. Millatlararo munosabatlar tarixidan. "Muloqot" 2001 2-son<sup>5</sup>.

Xulos o'rnida shuni aytishimiz mumkinki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar doirasida hududlarda millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, millatchilik g'oyalarini targ'ib qilishga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot guruhlar, imom-xatiblar, viloyat, shahar va tumanlar hokimliklari matbuot xizmatlari imkoniyatlari orqali 30 dan ortiq ma'rifiy maqolalar, ilmiy-ommabop materiallar tayyorlanib, internet saytlariga joylashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (Toshkent 2000)
2. Axmedov B.A. O'zbek ulusi. T., 1991.
3. Ota-Mirzayev O. Milliy aholi siyosati. Mustaqillik bu huquq. T., "O'zbekiston".
4. Umanskiy Y.A. O'zbekiston Respublikasi: millatlararo munosabatlarning taraqqiyoti. Ijtimoiy fikr, 1998. N°1, 31 b.
5. Xusanov O. Fuqarolik o'z-o'zni boshqarish, huquqiy demokratik islohotlar. "O'zbekiston" 1997y.
6. Yunusova X. Millatlararo munosabatlar tarixidan. "Muloqot" 2001 2-son.

---

<sup>5</sup> Yunusova X. Millatlararo munosabatlar tarixidan. "Muloqot" 2001 2-son

